# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Google Scholar

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

*Elektron nashr. 656 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "OʻIRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Poʻlatov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d., TAQU katta oʻqituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Fargʻona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boʻlimi boshligʻi
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta oʻqituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, OʻzR Tabiat resurslari vazirligi, OʻzR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o‘ziga xos xususiyatlari va tamoyillari ..... 10
**Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G‘aybulla o‘g‘li**

Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari ..... 16
**Akbarov Bekmurod Miryakubovich**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ellikqal’a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi ..... 22
**Norchayev Asatullo Norbo‘tayevich**

Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country’s Economy ..... 28
**Tulagan Tukhtaraliev, G‘aniev Muhammadjon Xalilovich**

Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish ..... 31
**Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi**

O‘zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida ..... 34
**Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o‘g‘li**

Oliy ta’limning raqobatbardoshligini ta’minlashda ta’lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O‘zbekiston misolida) ..... 40
**Egamov Sevinchbek Maxsud o‘g‘li**

Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export ..... 46
**Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna**

O‘zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari ..... 49
**Hojiyev Tal’at Toshpo‘latovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo‘llari ..... 54
**Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi ..... 57
**Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich**

Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari ..... 61
**Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig‘ani qizi**

Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari ..... 68
**Uralov Olimjon Mahammadjonovich**

Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko‘rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish ..... 72
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar ..... 77
**A. I. Raxmatov**

Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана ..... 83
**Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи**

Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili ..... 88
**Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o‘g‘li**

Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili ..... 94
**R. I. Pardayev**

Katta hajmga ega bo‘lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta’siri ..... 101
**Raxmanova Xuriniso Egamovna**

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati ..... 104
**Rajjaboyeva Dildora Zakirovna**

Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash ..... 110
**Nilufar Sharipova**

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati ..... 114
**Karimov Shamsiddin Akram o‘g‘li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari ..... 122
**Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi**

Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari ..... 127
**Davronbek Sharibjonovich Raximov**

Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili ..... 133
**Aminov Farrux Farxadovich**

Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 138
**G. J. Jumayeva**

Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari ..... 141
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliini boshqarishdagi muammolar ..... 146
**Nematova Shaxlo Egamberdiyevna**

Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari ..... 149
**Xakimov Zohid Norbo'tayevich**

Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish ..... 158
**Zoirov O'lmas Erkin o'g'li**

Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash ..... 164
**Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna**

Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана ..... 168
**Иноятова Камола Фуркатовна**

Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni ..... 172
**X. X. Ikramov**

Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ..... 176
**Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li**

Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida) ..... 182
**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov**

Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli ..... 189
**Rabimqulov Sherzod Murtozayevich**

Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari ..... 193
**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**

Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi ..... 198
**Boltaboev Murodbek Aybekovich**

Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi ..... 203
**X. I. Boyev**

Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi ..... 207
**Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi**

Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak ..... 216
**Farhod Bagibekovich Xalimbetov**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili ..... 220
**Valiyeva Sayyora Xushbaqovna**

Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования ..... 227
**Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи**

Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность ..... 232
**Шермаматова Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли**

ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности ..... 238
**Фаттахова Муниса Абдухамитовна**

Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi ..... 243
**Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li**

Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг ... 248
**Розоков Мухаммадазиз Мансурович**

Factoring Operations in Banks ... 253
**Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna**

Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish ... 257
**Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich**

O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati ... 264
**Oybek Elmuratov**

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish ... 268
**Uzakova Umida Ruzievna**

Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy ... 274
**Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich**

O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomilashtirish yo'llari ... 278
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna**

Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari ... 284
**Norqobilov Nusrat Norsaitovich**

Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi ... 288
**Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna**

Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi ... 295
**S. Y. Ismoilova**

Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish ... 300
**Qurbonova Firuza Solexovna**

Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi ... 306
**AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich**

Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari ... 312
**Olimova Nodira Xamrakulovna**

Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish ... 324
**Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li**

Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvida faoliyat uzluksizligini baholash ... 331
**Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li**

Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий ... 335
**Махкамова Надира Саидмуратовна**

Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili ... 340
**Otajonova Gulhayo Maqsud qizi**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish ... 345
**Xudoyorov Laziz Niyozovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna**

Mamlakatimzda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari ... 351
**Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich**

Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilingan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi ... 357
**Amonova Dilafro'z O'tkurovna**

To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish ... 362
**Axmedov Miraziz Alisherovich**

Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari ... 367
**Hamrokulov M. O.**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalari faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi ........ 375
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich**

Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati ........ 379
**Raxmatov Temur Sotiboldiyevich**

Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе ........ 388
**Шадиева Дилдора Хамидовна**

Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan oʻzbekistonda foydalanish imkoniyatlari ........ 392
**Jumaniyazova Feruza Rajabovna**

Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choralari ........ 402
**Oybek Toshtemirovich Karimov**

Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish ........ 406
**Iminova Nargizaxon Akramovna**

Ishsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba ........ 412
**Sholdarov Dilshod Azimiddin oʻgʻli**

Takroriy ekinlar urugʻini toʻgʻridan-toʻgʻri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti ........ 418
**Abdullayev Baxodirjon Valijon oʻgʻli**

Banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli ........ 422
**Abdullayeva Dildora Qudratovna**

Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari ........ 425
**Adxamov Samariddin**

Barqaror iqtisodiy oʻsishga erishishda toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati ........ 430
**Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charosxon Polvonquli qizi**

Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xoʻjaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda ........ 435
**Babadjanov Abdirashid Musayevich**

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari ........ 441
**Maxamadaliyeva Mahliyoxon Maxamadmurod qizi**

Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari ........ 448
**Masharipov Maxmud Bekturdiyevich**

Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati ........ 453
**Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar oʻgʻli**

Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili ........ 459
**Samijonov Musobek Gʻayratjon oʻgʻli**

Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasidan foydalanish ........ 466
**Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich**

Oʻzbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamgʻarmalarning ahamiyati va oʻrni ........ 473
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Rauiya Maxsudovna**

Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning oʻrni ........ 479
**Xudayarova Zuxra Yuldashevna**

Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ ........ 482
**Бекназова Комилахон Миркамол қизи**

Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari ........ 490
**Burxonov Asliddin Asqar oʻgʻli**

Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi ........ 497
**Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna**

Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана ........ 503
**Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна**

Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari ........ 509
**Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich**

Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане 513
**Холдарова Фариза Тухтабаевна**

Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют ........ 519
**Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Искандарович**

Efficiency of Internal Audit Service and Report Improvement: Control of Sanatorium-Wellness Institution ...... 528
**Shafkarov Fahriddin Khudaiberdievich**

Development of Digital TV Services in the Conditions of Digitalization of the Economy ........ 534
**Farhad Karimov**

Kichik biznes faoliyatida muhim muvaffaqiyat omillarini belgilashning ahamiyati va ularni baholash ........ 538
**Kabulova Nurgo'zal Umirbek qizi**

Barqaror iqtisodiy o'sishni ekonometrik tadqiq etish ........ 541
**Muminova Maxbuba Abduvafoyevna**

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini baholash ........ 548
**Musurmonova Mahbuba Omonovna**

Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini ichki tartibga solishni takomillashtirishning ayrim jihatlari.. 552
**To'rayev Nurbek Muxammadovich**

Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili ........ 557
**Raxmonov G'ayrat Ismatulloyevich**

Strategik boshqaruv hisobi va uning uslubiyotini takomillashtirish masalalari ........ 562
**Sharipova Shoxida Abdinabiyevna**

O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari ........ 567
**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li**

Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning kontseptual jihatlari ........ 574
**Sultanov Maxmud Axmedovich**

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning ayrim me'yoriy-huquqiy asoslari ........ 578
**Turanov M. Sh.**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida tijorat banklarining o'rni ........ 586
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Zubaydullayeva Zulayxo Karimovna, Kaxarova Dildora Erkinovna**

O'zbekistonda tayyor kiyimlar bozori ko'lamini oshirishda marketing strategiyalarining samaradorligi ........ 596
**Urazov Mansur Musurmanovich**

Yevropaga barqaror eksport va qishloq xo'jaligida yashil rivojlanish uchun
Mosh bozori strategiyalarining ta'sirini baholash ........ 599
**Valiyeva Aziza Anvar qizi**

Rangli tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonlarini paralellashtirish ........ 605
**Xidirova Barchinoy Ilxomovna**

Korxonalarda ishchi personal ehtiyojlarini motivatsiyaga ta'siri ........ 610
**Aripov Oybek Abdullayevich, Axmedov Muzaffar Shokirjonovich**

Цифровые и традиционные методы сбора информации в
маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ ........ 615
**Бекназова Комилахон Миркамол қизи**

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari ........ 623
**Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.**

Positioning Textile Products in Competitive Strategy ........ 626
**Икрамова Нодира Бурхон қизи**

Sanoatni tarkibiy o‘zgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik ko‘rsatkichlarini prognozlash............ 631
**Kasimov Azamat Abdukarimovich**

O‘zbekiston Respublikasi budjetini shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi .................... 638
**Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna**

To‘qimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish masalalari.................................................................... 645
**Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich**

Влияние плодородности почвы на урожайность хлопчатника в хлопково-текстильных кластерах Республики Каракалпакстан .......................................................................................................................................... 650
**Сагиева Молдир Оразбай кизи**

# TO'QIMACHILIK KLASTERLARI EKSPORT SALOHIYATINI BOSHQARISH MASALALARI



**Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich**
Andijon davlat universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: To'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini boshqarish bo'yicha amaldagi mexanizmlarning xususiyatlari ochib berilib, O'zbekistonda to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholash bo'yicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik, klaster, eksport, eksport salohiyati, menejment, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish.

Abstract: The features of the current mechanisms for managing the export potential of textile clusters are disclosed, and the evaluation of the efficiency of production process management in textile clusters in Uzbekistan is discussed.

Key words: textiles, cluster, export, export potential, management, management of production processes.

Аннотация: Раскрыты особенности действующих механизмов управления экспортным потенциалом текстильных кластеров, а также обсуждена оценка эффективности управления производственными процессами в текстильных кластерах Узбекистана.

Ключевые слова: текстильная промышленность, кластер, экспорт, экспортный потенциал, менеджмент, управление производственными процессами.

## KIRISH

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining zamonaviy klaster tizimida bir qator jiddiy muammolar mavjud. Ulardan biri davlat tomonidan haddan tashqari tartibga solish bilan tavsiflanadi, bu esa asosiy yirik ishlab chiqaruvchilarning mulkiy huquqlari o'ta zaif himoyalanishiga, to'qimachilik mahsulotlari va ishlab chiqarish resurslari va xizmatlarining ko'p turlari rivojlanmaganligiga olib keladi. Muammolarning yana bir guruhi, davlat buyurtmalarini shakllantirishning joriy mexanizmlari va narx tizimi to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'pchilik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun zarar keltirishi bilan bog'liq.

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasi tayyorlandi. Loyihada mutlaqo yangi yondashuv qo'llanilib, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi asosida baholash tizimi joriy etildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadga erishish nazarda tutilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

To'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning klaster shakllari bilan shug'ullangan zamonaviy olimlar orasida D.P.Barsukov [1], D.M.Begov [2], V.I.Vagizova [3], L.L.Butuzova [4] va boshqalarni alohida aytib o'tish mumkin.

Mahalliy olimlar orasida to'qimachilik klasterlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari M.R.Boltabayev [5], Z.A.Xakimov [6], S.Sh.Yusupov [7], X.Kodirov, I.A.Toshpulatov [8], N.Sadridinova va boshqalar tomonidan bevosita yoki bilvosita o'rganilgan.

Shu bilan birga, bu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko'plab tadqiqotlari mavjud bo'lishiga qaramay, to'qimachilik klasterlarini takomillashtirish va to'qimachilik mahsulotlari eksportini optimallashtirish masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda toʻqimachilik sanoati tarmoqlarini tarkibiy oʻzgarishlar asosida maqbullashtirish va samaradorlik koʻrsatkichlarini prognozlash boʻyicha empirik tadqiqotlar hamda nazariy qarashlar oʻrganilgan. Tadqiqotda empirik va nazariy jihatdan tahlil va sintez, deduksiya va induksiya, jadval, grafik, ekonometrik modellashtirish usullaridan, shuningdek mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2016–2020-yillarda mintaqalarning toʻqimachilik va tikuvchilik sanoatida qiymati 2,263.1 mln. AQSH dollariga teng, 53977 ta yangi ish oʻrni yaratilgan va eksport salohiyati 993,7 mln. AQSH dollari miqdoridagi 288 ta loyiha amalga oshirildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirish boʻyicha 2020–2030-yillarga moʻljallangan strategiyani tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmoni ijrosini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirish boʻyicha 2020–2030-yillarga moʻljallangan strategiyada belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilingan boʻlib, unda Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirish boʻyicha 2020–2030-yillarga moʻljallangan strategiyada belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Mutaxassislarning fikricha, hozirgi kunda mamlakatda 97 ta paxta-toʻqimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta gʻallachilik, 35 ta sholi yetishtirish va dorivor oʻsimliklar ishlab chiqarish boʻyicha yettita klaster faoliyat koʻrsatmoqda. Bozor tamoyillariga oʻtishda klaster tizimi muhim omil hisoblanadi. Bugungacha mamlakatimizda 73 ta paxta-toʻqimachilik klasteri tashkil etilgan, 2020-yil paxta hosilining 73 foizi ularning hissasiga toʻgʻri kelgan. Oʻrtacha hosildorlik klaster boʻlmagan yerlarga nisbatan 4,1 sentnerga yuqori boʻlib, qoʻshimcha 428 ming tonna paxta olingan.

Qarorda belgilangan tartibga koʻra, 2019-yil 1-avgustdan boshlab qishloq xoʻjaligi mahsulotini eksport qiluvchilarning mahsulotni sertifikatlashtirish boʻyicha xarajatlari Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Eksportni ragʻbatlantirish agentligi tomonidan qoplanadi. Xomashyoni qayta ishlash, agrosanoat majmui mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish samaradorligini, eksport salohiyatini oshirish, ilmiy muassasalar bilan aloqalarni mustahkamlash va muntazam ilmiy tadqiqotlar olib borish, bu borada istiqbolli innovatsion ishlanmalarni joriy etish, buning uchun klaster tizimini joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur ekanligi va buning uchun klasterli tashabbuslarni amalga oshirish eng samarali hisoblanishi taʼkidlanadi.

Oʻzbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi, shu maqsadda soʻnggi yillarda davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha milliy institutlarni tashkil etish boʻyicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Qayd etilishicha, 2016–2019-yillar davomida Oʻzbekiston eksport hajmi 12,6 mlrd. AQSH dollaridan 17,9 mlrd. AQSH dollarigacha yoki 42 % oshdi. Biroq 2020 yilda koronavirus pandemiyasi eksport koʻrsatkichlariga salbiy taʼsir koʻrsatdi va u 15 %ga kamaydi. Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti 2022-yil yakuniga 3,5 mlrd. dollarni tashkil etishi kutilmoqda. Jumladan, 70 ga yaqin davlatlarga eksportni amalga oshirish rejalashtirilgan.

2018-yil dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportga koʻmaklashish va uni ragʻbatlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilinib, unda mamlakat hukumati tomonidan Oʻzbekistonda eksportni qoʻllab-quvvatlash Milliy tizimining eksport faoliyatiga axborot-tahliliy koʻmaklashish boʻyicha vazifalar belgilandi.

Tovar va xizmatlar eksporti hajmini tubdan oshirish, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, tashqi savdo muvozanatini taʼminlash va valyuta tushumlarini koʻpaytirish maqsadida ijroiya organlarining asosiy vazifalari etib tadbirkorlik subyektlariga yuqori qoʻshilgan qiymatga ega eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni koʻpaytirish, xizmatlar eksporti hajmini keskin oshirish hamda ularni koʻrsatish uchun tegishli infratuzilmani jadal barpo etish, shuningdek, oʻzi ishlab chiqargan mahsulotlarni yetkazib berishda hamkorlarni izlash hamda korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzishda har tomonlama koʻmaklashish belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan qarorga muvofiq Oʻzbekistonda eksportni qoʻllab-quvvatlash Milliy tizimi tashkil etildi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab olindi:

Eksportni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash sohasida davlat siyosatini takomillashtirish

Eksport qiluvchilarga va ularning chet eldagi hamkorlariga axborot va maslahat ko‘magini ko‘rsatish

Xorijiy xaridorni izlashga ko‘maklashish

Milliy mahsulotlarni chet elga eksport qilish bo‘yicha tizimli hamkorlikni ta’minlash

Hududlarda axborot-maslahat markazlari tarmog‘ini tashkil etish

Ishlab chiqarish va eksport faoliyati bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlik subyektlariga yetakchi xalqaro elektron tijorat maydonchalariga kirish uchun yordam ko‘rsatish

Eksport qilish boshlayotganlar uchun tashqi savdo faoliyati masalalari bo‘yicha o‘quv seminarlari va treninglar tashkil etish va o‘tkazish

1-rasm: Eksportni qo‘llab-quvvatlash Milliy tizimining vazifalari

2021-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unga muvofiq eksportchi korxonalarning savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish, shuningdek, reklama kampaniyalarini tashkil qilish bilan bog‘liq chet eldagi xarajatlari davlat budjetidan yoki qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa mablag‘lar hisobidan qoplab berilishi joriy etilgan.

Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash qismida eksportni qo‘llab-quvvatlash Milliy tizimining vazifalari quyidagilardan iborat:

- eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash
- respublika korxonalarining xalqaro savdo yarmarkalarida ishtirok etishini tashkil etishni moliyalashtirish
- milliy mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish xarajatlarini qoplash maqsadida eksport qiluvchi korxonalarga maqsadli moliyaviy yordam ko‘rsatish
- eksportoldi va eksportni moliyalashtirish, eksport kreditlari va tavakkalchiligini sug‘urtalash mexanizmlarini joriy etish
- savdoni moliyalashtirish uchun xalqaro va xorijiy moliya institutlarining qarzlari va imtiyozli kreditlarini jalb qilish

2-rasm: O‘zbekiston eksportni qo‘llab-quvvatlash Milliy tizimining moliyaviy vazifalari

Hozirgi kunda O‘zbekiston yengil sanoat tarmoqlari, birinchi navbatda, to‘qimachilik sanoati oldida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, zamon bilan hamnafas innovatsion mahsulotlar ulushini ko‘paytirish, yangi bozorlarni izlashdek muhim vazifalar turibdi, bu esa davlatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga, jumladan, yetarli miqdordagi ish o‘rinlari, ayniqsa, ayollar uchun yaratilishiga mo‘ljallangan respublika iqtisodiy salohiyatini yoritib berish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi muammolarni hal etishda davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ham muhim o‘rin tutadi, u bevosita moliyalashtirishda ham, turli imtiyoz va preferensiyalar berishda ham (rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yildan 2020-yilgacha 360 million dollardan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilgan) o‘z ifodasini topadi. Ayniqsa, 2020-yilda koronavirus pandemiyasi avj olgan davrda to‘qimachilik sanoati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ldi. Shunda eksport qiluvchi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari zarur soliq, bojxona, kredit va boshqa imtiyozlar to‘plamiga ega bo‘lgan, bu esa ushbu sohani rivojlantirish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4453 sonli qarori bilan 2021-yildan boshlab eksport qilinadigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,01 dollar miqdorida

yig'im undirilishi belgilab qo'yilgan. Bu mablag'larning 75 foizi korxonalarda xalqaro standartlarni joriy etish, mahsulotlarni sertifikatlash, korxonalarning xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etish, milliy brendlarni yaratish va ilgari surish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasiga yo'naltiriladi.

Jahon paxta ishlab chiqaruvchilari orasida O'zbekiston 6-o'rinda turadi, bu esa to'qimachilik ishlab chiqarishini samarali shakllantirish bo'yicha qiyosiy ustunliklar mavjudligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval: Jahon paxta ishlab chiqaruvchilari, 2021-yil

| № | Mamlakat | Yillik o'rtacha paxta tolasi miqdori, million tonna | Ishlab chiqaruvchining xususiyatlari |
|---|---|---|---|
| 1. | Xitoy | 6,5-6,6 | 1. Dunyo paxtasining 25 % dan ortig'i bu yerga to'g'ri keladi.<br>2. Asosan tayyor mahsulotlar eksport qilinadi.<br>3. Hosildorlikni oshirish uchun tuproqqa kimyoviy ishlov berishga e'tibor beriladi. |
| 2. | Hindiston | 6,3-6,4 | 1. Mashina va qo'lda yig'ish.<br>2. Xorijga mahsulot eksportining yuqori ulushi |
| 3. | AQSH | 3,5-3,7 | 1. Faqat mashina yig'ish qo'llaniladi.<br>2. Paxta eksporti yetakchisi. |
| 4. | Pokiston | 2,3-2,4 | Dunyoda tayyor mahsulotlarga talab yuqori |
| 5. | Braziliya | 1,4-1,5 | Paxta yetishtirish qadimiy an'anadir |
| 6. | O'zbekiston | 1,1-1,2 | Paxta-to'qimachilik klasteri loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish, mahsulotlarni sertifikatlashtirishni davlat tomonidan subsidiyalash. |

1-jadvalda ko'rsatilganidek, O'zbekistonda klaster tuzilmalarini keng joriy etishni nazarda tutuvchi islohotlar amalga oshirilmoqda, bu fermer xo'jaliklari va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarni yagona zanjirga birlashtirib, shu orqali ikkalasining ham xarajatlarini kamaytiradi. Bu islohotlar jami ishlab chiqarish va eksport salohiyatida to'qimachilik sanoati ulushining jadal oshishiga asos bo'ldi.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2022-yil yakuniga to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti 3,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etishi kutilib, 70 ga yaqin davlatlarga eksport amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, 2025-yilga borib, bu ko'rsatkichlarni 9,1 mlrd. AQSH dollari yetkazish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, to'qimachilik mahsulotlarining yangi bozorlarini o'zlashtirish bo'yicha muntazam ishlar olib borilmoqda, eksportning eng katta ulushi quyidagicha taqsimlanadi: Yevropa Ittifoqiga − 7 %, MDH − 44 %, Markaziy Osiyo −

6 %, Sharqiy Osiyo – 27 %, Janubi-sharqiy Osiyo – 6 %, Yaqin Sharq va Afrika – 8 %. [9]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, qisqa vaqt ichida klasterlarni joriy etishning ilg'or usuli O'zbekiston to'qimachilik sohasida yuqori o'rinlarni egalladi. Barcha mintaqalarda paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib, paxta tozalash zavodlarida qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha ishlab chiqarish davrlarini bog'lovchi paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilmoqda.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport salohiyati 2016-yildn 2020-yilgacha bo'lgan davrda sezilarli darajada oshgan. O'zbekistonda tashkilotlarning klasterlari shakllarini joriy etish aynan 2016-yil oxiri va 2017-yil boshlariga to'g'ri keladi. Eksport salohiyatining yuqori darajada oshishi Namangan viloyati (7 barobar oshish) va Surxondaryo viloyatida (8 barobar oshish) kuzatildi. To'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini baholash uchun O'zbekiston hududlarida mahalliylashtirish, aholi jon boshiga ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi. Xorijiy tajribani o'rganish natijasida yalpi xududiy mahsulotning YAIM ulushida past bo'lgan hududlar uchun qoniqarli baholarni taqdim etish uchun standart mahalliylashtirish koeffitsiyentiga mintaqa o'lchami va mintaqalararo savdo hajmi bo'yicha tuzatish kiritish darajasini belgilab beruvchi parametrning pastroq qiymati talab qilinishi aniqlandi. Taklif etilgan eksport salohiyati hamda mahalliylashtirish koeffitsiyentlarini hisoblash asosida mintaqaning iqtisodiy kompleksi tarkibini tahlil qilish mintaqadagi takror ishlab chiqarish jarayoni, iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan mintaqa iqtisodiyotining samaradorligi, barqarorligi, raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Барсуков Д.П. Формирование промышленного кластера: теоретические и методические аспекты: монография. / Д.П. Барсуков, В.С. Кудряшов: под общ. ред. Д.П. Барсукова. – СПб.: СПбГУКиТ, 2014. - 170 с. 12.
2. Бегов Д.М. Эффективность формирования регионального хлопково-текстильного кластера (на материалах Согдийской области). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Душанбе, 2020.
3. Вагизова В.И. Кластеризация как инновационная форма диверсификации хозяйственных систем и фактор повышения конкурентоспособности экономики Татарстана. // Проблемы современной экономики, 2009.
4. Бутузова Л.Л. Формирование производственно-инновационных кластеров промышленных предприятий. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.
5. Boltabayev M.R. O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2005. – 242 b.;
6. Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2017. – 141 b.;
7. Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2018. – 144 b.;
8. Toshpulatov I.A. To‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2019. –137 b.
9. https://uzts.uz.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.